

Date: 25th January-2025

OGAHIYNING TARIXIY ASARLARIDA KELTIRILGAN FARDLARDA VAZN
MASALASI

Normetova Lobar

Urganch davlat universiteti Magistratura bo'limi
Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti magistranti

Annotatsiya. Maqolada Ogahiyning tarixiy asarlarida berilgan nazmiy parchalar, aniqrog'i, fardlarning vazni tahlil qilingan. Shuningdek, ijodkorning tarixiy asarlaridagi nazmiy qismlar va adabiy merosidagi vaznlar xilma-xilligining tutgan o'rni ham asoslab o'tilgan.

Kalit so'zlar: ramal, aruz, qofiya, rukn, muzore', axrab, mahzuf, makfuf, maqsur, foilotun, mustaf'ilun, musamman, ashtar foilun, mafoiylun.

Аннотация. В статье анализируются поэтические отрывки, а точнее, вес отдельных стихов, приведенные в исторических произведениях Огахи. Также обоснована роль поэтической части в историческом творчестве художника и разнообразие весов в его литературном наследии.

Ключевые слова: рамал, аруз, рифма, руkn, музоре, ахраб, махзуф, макфуф, максур, фаилотун, мустафилун, музамал, аштар фаилун, мафойлун.

Abstract. The article analyzes the poetic passages, or more precisely, the weight of individual verses, given in Ogahi's historical works. Also, the role of poetic parts in the artist's historical works and the variety of weights in his literary heritage is justified.

Key words: ramal, aruz, rhyme, rukn, muzore', akhrab, mahzuf, makfuf, maqsur, failotun, mustafilun, muzamal, ashtar failun, mafoiylun.

Ogahiy lirikasiga baho berish, xususan, uning qofiya, vazn va badiiyat borasidagi mahoratini munosib asoslash borasida ko'plab ilmiy ishlarga qo'l urilgan va hozir ham ayni maqsadni ko'zlagan tadqiqotlar keng olib borilmoqda. Shu o'rinda M.Matyoqubovanning «Ogahiy ijodida kichik lirik janrlar» tadqiqoti, ayniqsa, ahamiyatga sazovor. Ammo olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor Ogahiyning devonida va bayozlarda saqlanib qolgan lirik merosiga qaratilga. Vaholanki, uning tarixiy asarlarida ham nazmiy o'rinlar yetarlicha va badiiy qiymati jihatidan sharq mumtoz adabiyoti xazinasida ancha yuqori o'rinda turadi. Biz ushbu maqolamizda Ogahiy qalamiga mansub tarixiy asarlardagi eng kichik janr namunalari–fardlarning vazni masalasiga diqqat qaratishni o'zimizga maqsad qildik.

Sharq olamida azaldan adabiyot – so'z san'atiga alohida nazar bilan qaralgan. Adabiyot nazariyasi esa asrlar davomida uch tarkibiy qismga ajratilib, ularning har biri mustaqil fan sifatida chuqur tadqiq etilgan. Ular quyidagilar: ilmi aruz, ilmi bade' va ilmi qofiya. Fors ulamolari bu uchlikni "Ilmhoye segona" (Ilmlar uchligi) deb atashgan.

Ana shu uch ustunning biri bo'lgan aruz vaznining biror ijodkor asarlarida xilma-xil tarzda qo'llanilishi ushbu qalam sohibining mahorati ko'zgusi sifatida qaralgan. Albatta, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, faqat bir xil vaznda ijod qila



Date: 25th January-2025



turib ham, o'zidan go'zal adabiy meros qoldirgan ijodkorlarni kuzatishimiz mumkin. Bunga e'tirozimiz yo'q. Shunday bo'lsa ham, turli solim va aralash bahrlarni birday qo'llay olgan shoirlar o'zlarining aruz bobidagi mahoratlari bilan ajralib turishadi. Xususan, Ogahiy hazratlari ham nafaqat o'zi istifoda etgan janrlar xilma-xilligi bilan, balki vaznlarning qo'llanilishi bilan ham o'zidan keyingi davr shoirlariga o'rnak bo'la olgan. Birgina tarixiy asarlarining o'zidayoq biz nafaqat solim bahrlar, balki ularning zihofga uchragan ko'rinishlarini va hatto, aralash bahrda yozilgan g'azallarni ham uchratishimiz mumkin. Quyida ayrim misollar yordamida ushbu ijodkorning aruz bobidagi ilmiga nazar tashlashimiz mumkin.

Ramal bahri turkiy adabiyotning musta'mal bahrlaridan biridir. Xususan, uning sakkiz ruknli tarmoqlaridan birini taniqli adabiyotshunos Nasimxon Rahmonov «asosan turkiygo'y shoirlar ko'p ijod qilgan, o'sha davrda keng tarqalgan "turkiy" deb ataluvchi surud vazni (ramali musammani maqsur (foilotun foilotun foilotun foilon))»¹ deb nomlaydi. «Surud» so'zining ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, «Navoiy asarlari lug'ati»da bu so'z «ashula, qo'shiq»² kabi ma'nolarda izohlangan. Bu bejiz emas, chunki ushbu vazn xalq og'zaki ijodiga yaqinligi va shu tufayli yozishga osonligi bilan ajralib turadi. «Qo'shiq» so'ziga yaqinligi esa ushbu vaznda yozilgan asarlarning jarangdorligi bilan bog'liq. Ogahiy ham o'zining nasriy, xususan, tarixiy asarlaridagi fardlarda bu vazni chetlab o'tmaydi va bir qancha fardlarni aynan shu vaznda yozadi. Quyida ramal bahrining turli ko'rinishlarida yozilgan baytlarni ko'rib o'tamiz:

1. Ramali musammani mahzuf vazni:

Hay'ati mar/g'ub ila zav/raq kezib Jay/hun aro.

-V- -/-V- -/-V- -/-V-

Foilotun/foilotun/foilotun/foilon

Yangi oy andog'ki soyir bo'lg'usi gardun aro.[3,1096]

Yoki:

Zulmat ahli/g'a yetishti/ obi hayvon/ mujdasi,

-V- -/-V- -/-V- -/-V-

Foilotun/foilotun/foilotun/foilon

Yo'q esa, yet/ti o'luk aj/somig'a jon mujdasi. [4,106]

2. Ramali musaddasi mahzuf:

Istama no/mariddin mar/donalig',

-V- -/-V- -/-V-

Foilotun/foilotun/foilon

Kim emas er/ xulqi xotun/g'a qiliq.[4,319]

3. Ramali musaddasi maqsur:

Ey, huzuring/din guliston/ o'ldi shahr,

-V- -/-V- -/-V~

Foilotun/foilotun/foilon

Balki rashki/ bog'i rizvon/ o'ldi shahr.[7,133]

¹ O'zbek adabiyoti tarixi. N. Rahmonov. T., «Sano-standart», 2017, 467-b.

² Navoiy asarlari lug'ati. P. Shamsiyev. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1972, 576-b.

Date: 25th January-2025

Ogahiy tomonidan eng ko'p qo'llanilgan bahrlardan biri **hazaj** bahridir. Ushbu bahrning turli ko'rinishlaridan fardlarda keng foydalanilgan:

1. Hazaji musammani solim:

Xusho ulkim/ shahanshoi/ jahon fayzi/ qudumidin

V---/V---/V---/V---

Mafoiylun/mafoiylun/mafoiylun/mafoiylun

Nazohat ich/ra manzilgo/hi oning jan/natosodur. [3,1046]

2. Hazaji musaddasi mahzuf:

Aningdek ay/ladi jashne/ muhayyo,

V---/V---/V--

mafoiylun/mafoiylun/mafoiylun

Ki mislin ko'r/magan gardu/ni volo. [4,362]

3. Hazaji musaddasi maqsur:

Hamono o/ftobi o/lamoroy,

V---/V---/V~

mafoiylun/mafoiylun/mafoiylun

Qamar manzil/gahin qilg'on/ kibi joy. [3,892]

4. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur:

Bir damda/ aningdek o'l/di nobud,

--V/V-V/V~

Ma'ulu/mafoiylun/mafoiylun

Go'yoki/ burun yo'q er/di mavjud. [3,1041]

5. Hazaji musaddasi axrabi makfufi mahzuf:

Ul yurt a/ro ul ikki/ yagona,

--V/V-V/V--

Ma'ulu/mafoiylun/mafoiylun

Bir pistayu mag'z anga dugona. [4,53]

Shohlar haqida asar yozilar ekan, muta'qorib vaznidan foydalanish mumtoz Sharq an'anasiga aylanib ulgurgan. Firdavsiyning «Shohnoma»si ham, «Xamsa» dostonlari tarkibiga kiruvchi Iskandar haqidagi dostonlar ham muta'qorib bahrida yozilganlari fikrimiz dalilidir. Shu jihatdan Ogahiy ham ayni podshohlarning hukmronlik yillari haqida tarixiy asarlar yozar ekan, bu vaznni chetlab o'tishi mantiqqa to'g'ri kelmasdi. Biz aynan **mutaqoribi musammani mahzuf** vaznida yozilgan baytlarni «Firdavs ul-iqbol» asarida uchratishimiz mumkin:

Agar kirsar har kimki ul sho'r aro,

V--/V--/V--/V--

Faulun/mafoiylun/mafoiylun/mafoiylun

Maqomi o'lur erdi taxtussaro. [3,1132]

Yana bir faol istifoda etilgan bahrlardan biri xafif bahridir. O'rtachadarajadan sal murakkabroq bo'lgan bu bahrida ijod qilish Ogahiyga qiyinchilik tug'dirmaganini misollar yordamida ko'rishimiz mumkin:

1. Xafifi musaddasi maxbuni maqtu':



Date: 25th January-2025

Barcha elning ko'ngullarin oldi,

–V – –/V–V–/– –

Foilotun/mafo'ilun/fa'lun

Yaxshi oti ulus aro qoldi.[6,177]

2. Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf:

Bezadi ot ila yarog'ini el,

–V–/V–V–/VV–

Foilotun/mafo'ilun/fa'ilun

Ko'zladi azmi harb chog'ini el.[7,130]

Bu va bunga o'xshagan misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Ogahiyning tarixiy asarlaridagi she'rlari vazni va qofiyasi mukammallik jihatidan lirik devoniga kirgan she'rlari bilan bimalol raqobatlasha oladi. Ogahiy she'rlarining vazn xususiyatlarini o'rganish jarayonida har qaysi vazn g'oya va timsollarni yorqin ifodalashga xizmat qilganini ta'kidlab o'tish zarur bo'ladi. Ijodkor saj' aralash berilgan nasriy bayondan tashqari jang holati, saf tayyorgarligi, biror hudud tasviri, shaxs tavsifi, ov jarayoni, biror sana bilan bog'liq hodisalar bayonida nazmga murojaat qiladi. Xususan, fardlarda solim bahrlarning turli ko'rinishlaridan tashqari xafif, sari' kabi aralash bahrlar ham ishlatilgan. Bu holni ijodkor maqsadini, ish mohiyatini ochib berish bilan bog'lash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N. Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent: “Sano standart”, 2017.
2. P. Shamsiyev., S. Ibrohimov. Navoiy asarlari lug'ati. –Toshkent:G'afur G'ulom, 1972.
3. Ogahiy. Munis. Firdavs ul-iqbol. –T: Sharq, 2019.
4. Ogahiy. Riyoz ud-davla. –T: Sharq, 2020.
5. Ogahiy. Gulshani davlat. –T: Sharq, 2019.
6. Ogahiy. Shohidi iqbol. –T: Sharq, 2019.
7. Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. –T: Sharq, 2019.
8. I. Ismailov. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. –Toshkent: “Ilm ziyo zakovat”, 2020.

